

BOBUR MIRZO IJODIDA KOMIL INSON TARBIYASI HAQIDA

Nargiza Fayziyeva

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi huzuridagi

Harbiy musiqa akademik litsey o'qituvchisi.

Tel: 998(93)5972807

Annotatsiya:

Zahiriddin Muhammad Bobur temuriylar avlodi, boburiylar imperiyasining asoschisi, yuksak ma'naviyatli komil inson, adolatli hukmdor, jasur va mohir sarkarda bo'lish bilan bir qatorda o'zbek adabiyoti xazinasini o'zining zarhal sahifalari bilan bezagan iste'dodli ijodkor, benazir nafis so'z san'atining sohibidir. Mirzo Bobur ijodida komil inson tarbiyasiga ham alohida yondashiladi mazkur maqolada ana shular haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Komil inson, benazir, nafis so'z san'ati, badiiy adabiyot, san'at homiysi, ilm-ma'rifat, noyob fazilat, quvvat hofizasi, ruboiy, yetuk, iqtidorli shoir, barkamol inson, davlat arbobi, noyob iste'dod egasi.

Zahiriddin Muhammad Bobur, yirik davlat arbobi, mohir sarkarda, podshohlar ichra sahovatliligi, mardligi, noyob iste'dod egasi, buyuk aql-zakovati, ilm-fan, adabiyot va san'at homiysi, nozikta'b faylasuf alloma va mashhur muarrix, nafis nazmiy va nasriy ijodi, buyuk shoir va adib ekanligi, quvvat hofizasining nihoyatda keng va chuqurligi jihatidan hamda boshqa ko'pdan-ko'p noyob fazilatlariga ko'ra temuriyzoda hukmdorlar orasida o'ziga xos ulug' inson sifatida tarixda qolgan.

Ma'rifatli hukmdor Umarshayx Mirzo sevimli o'g'li Zahiriddinning ta'lim-tarbiyasiga, jismoniy-ma'naviy barkamolligiga nihoyatda katta e'tibor qaratadi. Ammo otasining Axsi qal'asidan "kabutar va kabutarxona birla qulab" vafot etishi oqibatida yosh Bobur hayotida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. 11-12 yoshli Zahiriddin otasidan keyin taxtiga o'tirib, mamlakatni boshqarishga majbur bo'ladi. Hali yoshlik kayfiyatidan to'la ajralmagan o'spirin bir lahzada ulg'ayib, oilasi va mamlakatiga mas'ullik zimmasini o'z bo'yniga oladi. Zukko va talabchan onasi Qutlug' Nigor xonim hamda amaldorlar ko'magida davlat ishlarini yuritishga kirishadi. Keyinchalik Bobur o'zining o'sha davrdagi

hayotiy faoliyatini, mashaqqatli hukmronlik yillarini “Boburnoma” asarida keng va ta'sirchan yoritib beradi.

Bobur Mirzo tarixda shoh va sarkarda bo‘lish bilan bir qatorda iqtidorli ijodkor, salohiyatli shoir bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, komil inson, sifatida keng shuhrat qozonadi. Bobur naqadar sertashvish, notinch hayot kechirishiga qaramay, o‘z davriga nisbatan yetuk bilimli, yirik badiiy va chuqur mazmunli ilmiy asarlar ijodkori darajasiga ko‘tarildi. U yoshligidan ilm-ma'rifatga, badiiy adabiyotga alohida qiziqish bilan qaraydi. Sharq adabiyotining yirik namoyondalari Sa'diy, Hofiz, Lutfiy, Navoiy kabi mohir so‘z san'atkorlari merosini katta qiziqish bilan o‘rganadi, ulardan ilhomlanadi va 16-17 yoshlaridan o‘zi ham ijod qilishni boshlaydi. Asosan turkiy, ba'zan forsiy tillarda asarlar yaratadi. “Mubayyin”, “Volidiya” kabi asarlari esa Boburning arab tilini ham puxta egallaganligdan dalolat beradi.

Ushbu ruboiyda Bobur ilm o‘rganish, bilim olishni inson hayotidagi eng muhim maqsad, vazifalardan biri sifatida talqin qiladi. Quyidagi ruboiyda esa shoir vafo-sadoqatni tarannum etadi, odamlarni yaxshilikka, ezgulikka chorlaydi, yaxshilikning hamisha yomonlik ustidan g‘alaba qozonishini, yomonlik jazosiz qolmasligini ta'kidlaydi:

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Bobur Mirzoning qo‘yidagi misrlari orqali komil insonlarga xos hislatlar – molu, davlatga, mansab-martabaga o‘ch bo‘lmaslikka, bu yo‘lda turli mashaqqatlarga muhtalo bo‘lmaslikka chorlaydi:

G‘ofil o‘lma davlatga, o‘zni solma mehnatga,
Tangri berur albatta, davlat ista, himmat tut.

Ya'ni, “Sen qancha tashvish chekma, yaratgan o‘z karami bilan davlat ato etadi, davlatni ista, maqsad qilu lekin himmatni unutma, hamisha himmat bilan ish tut, haqiqiy davlat va kamolot shundadir”, - degan ma'noga ega.

Zahiriddin Muhammad Bobur she'riyatida do'stga sadoqat, o'z yaqinlariga mehr-oqibatli bo'lish kabi komil insonlarga xos yuksak insoniy xislatlar ustuvorlik qiladi:

Zinhorki, do'stluqni unutmag'aysen,
Tuqqonlikdin ko'ngulni sovutmag'aysen.
Yotlar bila dushman tarafin gar tutsang,
Tuqqonlig'u do'stlug' tama' tutmag'aysen.

Bobur Mirzoning ushbu ruboiysida chin do'stlik, do'stlikni unutmaslik, tug'ishgan qon-qarindoshlardan ko'ngilni sovutmaslik, ularga mehr-oqibat ko'rsatish kabi sof insoniy his-tuyg'usi madh etiladi. "Yot-begonalar, dushman tomonga o'tsangu ularning yonini olsang, tug'ishgan va do'stlikka munosib emassan, birodarlikni tama' qilishga loyiq emassan",- degan mazmun poetik gavdalantiriladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida inson kamolotini ta'minlovchi, ilm-ma'rifatga chorlovchi, boshqacharoq qilib aytadigan bo'lsak, ilm-ma'rifatga yetaklovchi bir qancha badiiy manzumalarni kuzatishimiz mumkin:

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,
O'rgangani ilm tolibi ilm kerak.
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.

Bobur ijodida bu kabi ilm-ma'rifatga, xarakterga ega badiiy lavhalarni nihoyatda ko'plab uchratishimiz mumkin. Bunday ruboiylar yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalashga, ruhiy kamolotini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytadigan bo'lsak, komil inson bo'lishiga xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida she'riyatning asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go'zalligi, unga cheksiz muhabbat, hijron azobi, ayrilig' alamlari va visol quvonchlari nihoyat go'zal va mohirona ifoda etilgan.

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Zahiriddin Muhammad Bobur ham barcha temuriyzodalar singari o‘ta aqlli, g‘oyaviy-siyosiy yetuk va hushyor inson bo‘lgan. Hali o‘n bir yasharlik paytidayoq qo‘liga qilich olib jang qilishiga xalq, Vatan aqdiri uchun kurash olib borishiga to‘g‘ri keldi. Tarix Bobur Mirzodek temir irodali buyuk shaxslarni kamdan-kam biladi. U oz sonli qo‘shini bilan qudratli harbiy kuchlarni mag‘lubiyatga uchratgan, aksariyat janglarda zafar quchgan.

«Bobur Sharq mamlakatlari taxtiga yarashib tushgan hukmdorlarning yorqin namoyandalaridan biridir. Uning shaxsi olijanob inson va ulug‘ va ulug‘ shohga mansub bo‘lgan fazilatlardan tarkib topgan. U jasur va tadbirkor hamda shijoatli sarkarda bo‘lib, kishilarni o‘z ortidan ergashtira oladigan tashkilotchi lashkarboshi edi. U ko‘ngli beg‘araz hamda ishonuvchan kishi bo‘lib, yoshlik g‘ayrati va shijoati uni hech qachon tark etmagan... Shu bilan birga yuksak e‘tiqod kishisi bo‘lgani uchun ulug‘vorlik va go‘zallikni nihoyatda qadrlab, uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga intilar edi. U buyuk qudrat va ulug‘vorlik egasi bo‘lib, shon-shuhratning har qanday ko‘rinishi uning tasavvurini yanada kengaytirar va birovning shuhratiga sherik bo‘lishni istamas va o‘zinikiga ega bo‘lishni ma‘qul ko‘rar edi. Hali yosh bolaligidayoq, Farg‘ona taxtiga chiqqanda, atrof mamlakatlarning taxtida sulton va xonlar o‘tirar edi. U hali yigitlik davridayoq u sultonlardan birontasi qolmadi. Ular saroydagi fitnalar yoki bo‘lmasa chetdan kelgan bosqinlar qurboni bo‘ldilar. O‘sha shafqatsiz shamollar Boburni ham uzoq ellarga eltib tashladi. Lekin qonidagi g‘ayrat-shijoat va iroda kuchi tufayli ana shu hayot bo‘ronlariga bardosh berib, undan ustun kelgan yakkayu yagona temuriy Bobur edi.» -deb yozadi, «Boburnoma»ni ingliz tiliga tarjima qilgan Uil'yam Erskin o‘zining “Bobur Hindistonda” nomli asarida.

Mirzo Bobur buyuk xislatlarga ega bo‘lgan komil inson sifatida, har doim odamlarni, umummanfatlar yo‘lida boshini-boshiga qovushtirish, yakdil-yaktan qilish, ularni ezg, maqsadlar sari ruhlantirishga erishgan. U o‘zining vatanparvarlik va xalqparvarlik haqidagi otashin nutqlari, murojaatlari, sehrlil, jozibali so‘zlari hamda yuksak ma‘naviyati bilan odamlar qalbini rom etgan, katta-yu kichikni oyoqqa turg‘izgan. Buni Bobur Mirzoning 1527 yilning mart oyida Rano Sango bilan bo‘lgan hayot-mamot jangi oldidan

o‘z amirlari, beklari va sardorlariga qarata murojaat qilib, so‘zlagan jo‘shqin nutqi misolida ko‘rish mumkin: «Beklar va yigitlar! Har kim bu jahonga kelarkan, oxirida yo‘qlikka ketadi. Abadiy qoluvchi yolg‘iz xudodir. Har kimki hayot majlisiga kiribtur, oqibat ajal poymonasidan ichkusidur va har kishikim, tiriklik manziliga kelibtur, oxir dunyo g‘amxonasidan ketkusidir. Yomon nom bilan tirik yurishdan yaxshi nom bilan o‘lgan yaxshiroqdir. Tangri taolo bu nav saodatni bizga nasib qilibtur va mundoq davlatni bizga ravo aylabtur. O‘lgan shahid, o‘ldirgan g‘ozi. Barcha sarbozlar tangrining kalomi bilan ont ichmoqlari kerakkim, hech kim qitoldan yuz yondiru hayol qilmag‘ay, to badandan joni ayrilmaguncha bu muhoraba va muhotaladan ayrilmagay».

Zahiriddin Muhammad Boburning so‘zlaridan ruhlangan navkarlar va o‘sha xos majlisda hozir bo‘lgan katta-kichik Qur‘oni Karimni qo‘llariga olishib, hayot-mamot jangiga kirishga qasam ichib, urushga shitob bilan tayyorlana boshlashgan. Jasorat o‘ti qo‘rquv va umidsizlanish shamolini tarqatib yuborgan.

Boburning bu so‘zlari kutilgan natijani bergan. O‘rtadan qo‘rquv va sarosima ko‘tarilgan. Mirzo Bobur lashkarlari o‘zlaridan yetti-sakkiz marta ortiq bo‘lgan, juda ko‘plab harbiy sinovlardan o‘tgan, hayoti davomida bir necha o‘nlab janglarda qatnashgan, shu janglarda bir ko‘zi, bir qo‘li va oyog‘idan ajralgan, tanasida esa sakkizta jarohati bo‘lgan tajribali sarkarda Rano Sango jangovar qo‘shinini tor-mor etishadi .

Bobur hamisha mehnat va jang maydonining chetida emas, markazida bo‘lgan. Hamma masalada o‘zi shaxsan namuna ko‘rsatgan. Hayoti davomida erishgan jamiki g‘alabalarining boisi, el-yurtda obro‘si va martabasi balandligining asosiy sabablari uning xalqparvarligi, adolatparvarligi bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak, yuksak ma‘naviyatli ekanligdadir.

Mirzo Bobur umr bo‘yi o‘zi jondan sevgan el-ulusi, jangchilar, harbiy sarkardalar, oddiy kishilardan ajralmagan, o‘zi uchun alohida sharoit va qulayliklar yaratib yashamagan, yozning jazirama issig‘i, qahraton qish sovug‘ini, tog‘u, toshlardagi dovullarni, ochligu to‘qliklarni, zafarlaru, mag‘lubiyat alamlarini yaqin kishilari, vatandoshlari, safdoshlari bilan birga baham ko‘rgan. Bular uning naqadar yetuk, olijanob komil inson ekanligining yorqin dalildir.

Bobur Mirzo harbiy sohada qanchalik mohir bo'lsa, ijtimoiy – siyosiy masalalarni hal etishda, bunyodkorlik ishlarida ham benazir va betakror bo'lgan. Bobur va boburiylar davrida Afg'oniston va Hindistonning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Ko'plab ariq va kanallar qazildi, suvsiz yerlarga suv chiqarildi, ekin maydonlari kengaytiriladi, bog'lar barpo etiladi, turli binolar, yo'l va ko'priklar, masjid va madrasalar, buyuk obidalar quriladi. Inson aql-zakovati bilan dunyoda misli yo'q tarixiy obida, jahonning yetti mo'jizasiga tenglashtirilgan – Toj Mahal kabi maqbaralar ham boburiylar davrida bunyod etildi.

Bobur Mirzo Afg'onistondagi kabi Hindistonda ham mahalliy aholining diniy e'tiqodlariga, urf-odatlariga, madaniyati hamda qadriyatlariga erkinlik berdi, atrofiga mahalliy yerlik olim va fozillarni to'playdi, ularning maslahatlariga e'tibor qaratadi. Xalqning tinch va osayishta yashashlari uchun eng zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan qonun – qoidalar qabul qiladi. «O'zining qo'l ostidagi mamlakatlarning ko'plarida saroy va qasrlar qurdirdi va bog'lar yaratdi. U gulzorlar va go'zal o'lkalarni ko'rib quvonardi. Bobur yaxshigina bog'bon va tabiatshunos ham edi, ayrim mevali va manzarali daraxtlarni bir mamlakatdan boshqa o'lkaga olib keltirib, yangi iqlim sharoitida moslashtirar edi. Bu daraxtlarning ko'plari hali ham yashnab turibdi. Bu sohada erishgan muvaffaqiyatlardan jangda g'olib chiqqan kishiday quvonib ketar edi. Bu ishlarning barchasi urush va to's-to'polonlar orasida amalga oshirilar edi. Eng muhim yurishlar orasida, biroz ishlari yurishib qolgan paytlarda yaqin do'stlarini qo'msab, ularni ko'rgisi kelganini izhor qilib qolar edi» .

Zahiriddin Muhammad Boburning 100 dan ortiq g'azali va 200 dan ortiq ruboiysi, lirik devonlari, aruzga doir risolasi, «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Musiqiy ilm», «Mubayyin», «Aruz risolasi», «Risolai volidiyya» va boshqa asarlari tarix, falsafa, jo'g'rofiya, musiqa, adabiyot va san'at kabi turli sohalarni qamrab olgan, katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, inson komilligining yuksak durdonalari sanaladi.

Boburni dunyoga tanitgan eng nodir asari uning «Boburnoma»sidir. «Boburnoma» - qomusiy asar. Asarning qamrovi shu qadar keng, mazmuni shu qadar chuqur va

mukammalki, uni hech bir ikkilanmasdan o‘zbek adabiyotinigina emas, balki jahon adabiyoti, san'ati, ilm-fani va madaniyatining durdona asarlaridan biri, deb aytish mumkin.

Bisotida «Boburnoma»dek dunyo tan bergan asari va Zahiriddin Muhammad Boburdek tafakkur yulduzi, ulug‘ farzandi, buyuk mutafakkiri bo‘lgan har qanday xalq va millat toabad g‘ururlanib, faxrlanib yashashga ma'naviy haqlidir. Chunki Boburdek ulug‘ zotlar faqat o‘z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizasiya uchun ham xizmat qilgan, jahon ilm ahlining e'tiborini o‘ziga tortgan.

Qimmatli tarixiy-ilmiy manba bo‘lgan «Boburnoma»da murakkab ijtimoy-siyosiy voqea va jarayonlar bilan birga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning, xalq ommasi hayotining turli sohalariga taalluqli juda qimmatli faktlar va ma'lumotlar berilgan. Kitobda Boburning bosib o‘tgan hayot yo‘li, yutug‘u kamchiliklari, g‘olibligi-yu, mag‘lubiyatlari qanday bo‘lsa shandayligicha, hech bir qo‘shimchalarsiz, mubolag‘asiz, ilmiy xolislik asosida hikoya qilingan. Bobur «o‘z zamondoshlari va hamyurtlarini shunday ustalik bilan ta'riflaydiki, - deb yozadi, «Boburnoma»ni ingliz tiliga tarjima qilgan Uil'yam Erskin, - ularning ko‘rinishlari, odatlari va qiliqlari oynada ko‘ringandek aks etib turadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda bu asar o‘sha davrdagi Osiyo tarixini to‘g‘ri va to‘la aks ettirgan yagona asardir. Odatda, tarixchilar ulug‘ shohlarning qilmishlari va marosimlarini balandparvoqlik bilan ta'riflasalar-da, ularning shaxsiy hayoti va odatlarini ko‘pincha tushunib qoldirishga moyil bo‘ladilar, quyi tabaqadagilar hayoti haqida esa lom-mim deyilmaydi. Bobur asarida biror shaxs ustida so‘z yuritiladigan bo‘lsa, uning kiyinishi, didi, odatlari shunchalik haqqoniy va batafsil tasvirlab beriladiki, biz xuddi ular orasida yashayotganday, u kishilarni shaxsan taniganday bo‘lamiz» .

Bobur asarlari umumbashariy ahamiyatga ega ekanligi, insonni oliy qadriyat sifatida ulug‘langanligi bilan e'tiborga sazovordir. U o‘z she'riy asarlari bilan Sharqning buyuk mutafakkirlari izidan borib insoniy munosabatlarni rivojlantirishga, odamlar orasida mehr-oqibat urug‘ini sochishga, iymonli-insofli, bo‘lishga undaydi. U odamlarni qadrlash va sevishtga, to‘g‘ri, halol, sof ko‘ngil, vafodor bo‘lishga, mazlumlarni muhtojlarni oyoq osti qilmaslikka qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, komil inson bo‘lishga chaqiradi. Jumladan, ulug‘ shoirning, qo‘yidagi , falsafiy hikmatlarida olam-olam ma'no bor:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko‘rmagan yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo‘lsa, jazo topqusidir.

Bobur Mirzo g‘azallaridan birida boshidan kechgan og‘ir jabr-jafolarni, yuragidan g‘am-qayg‘ularni, «Charxning men ko‘rmagan dardu balosi qildimu» - deya, dard bilan ifodalaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ta'kidlaganlaridek, har bir insonning ma'naviy kamolati, bir-biriga yordam qo‘lini uzatishda, mehr-muruvvat ko‘rsatishda, bir-biriga e'tiborli bo‘lishda namoyon bo‘ladi. Yaxshilik qilish, inson uchun ezgu fazilat ekanini, uning «Kim ko‘ribdir, ey ko‘ngil, ahli jahondin yaxshilik», matla'si bilan boshlanadigan g‘azali misolida ko‘rish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, Bobur Mirzo e'tiqodda mustahkam, imoni butun, shu bilan birga, himmati baland komil inson edi. U bobosi sohibqiron Amir Temurga nisbat bersa bo‘ladigan ulug‘ kishi, saxovatli va diyonatli podshoh edi. Bosh farzandi Humoyun Mirzo betob bo‘lganida tabiblar maslahatini o‘zicha talqin etib, jonini farzandiga bag‘ishladi, uning dardini o‘ziga oldi, ko‘z yoshi to‘kib Yaratganga astoydil murojaat qildi. Ohu-nolalari, Allohga yetib farzandi tuzaldi, o‘zi esa kasallandi. Bu ibratli hikoya asrlar osha bizgacha yetib keldi.

Hech bir shoh, o‘zi hayotdan ko‘zini yummay turib, toj-taxtni farzandiga topshirmagan. Hech bir shoh, o‘zi haqida bor haqiqatni, xato-kamchiliklarini Mirzo Boburchalik, ochiq-oydin yozib qoldirmagan. Bunday oliyjanob xislatlar har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Boshqacharoq qilib aytadigan bo‘lsak, hech bir davrda, hech qachon islom dunyosida, Sharq podshohlari tarixida bunaqangi noyob hodisa kuzatilmagan. Bu esa Mirzo Boburning naqadar e'tiqodi mustahkam, komil inson ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Tahrir qilingan nashr. Toshkent: Fan, 1993.

2. Axmedov E. Zahiriddin Muhammad Bobur. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2008.
3. Bertels E. E. Bobur va uning «Boburnoma» asari. Toshkent: Fan, 1960.
4. G‘ulomov Y. Boburiylar saltanati tarixi. Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
5. Habibullayev A. Bobur va uning adabiy merosi. Toshkent: Universitet, 1996.
6. Mo‘minov A. Boburning ilmiy-ma’rifiy qarashlari. Toshkent: Ma’naviyat, 2010.